

Sirdaryo viloyatida Asosiy kapitalga investitsiyalar


2025-yil yanvar-dekabr oylari uchun

- I. Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar
- II. Sirdaryo viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar
- III. Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar
- IV. Sirdaryo viloyatida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish
- V. Asosiy kapitalga investitsiyalar bo'yicha uslubiy tushuntirishlar

I. Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar

So'nggi besh yildagi asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi shuni ko'rsatmoqdaki, u deyarli 1,5 barobarga ko'paydi, ayniqsa joriy davrda o'tgan yilga nisbatan 5 820,9 mlrd so'mga ko'p investitsiyalar o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar dinamikasi



So'nggi besh yil ichida o'sish sur'atlarini ko'radigan bo'lsak, ular o'sib borish tendensiyasiga ega bo'lib, joriy davrda eng yuqori o'sish sur'ati – 145,2 % kuzatilgan bo'lsa, 2024-yida eng past ko'rsatkich qayd etilgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(choraklik\)](#)

[Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(yillik\)](#)

[Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'ati \(choraklik\)](#)

[Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'ati \(yillik\)](#)


Iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirishga 2025-yil yanvar-dekabr oylarida barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 17 227,2 mlrd so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi va bu ko'rsatkich 2024-yilning mos davriga nisbatan 145,2 % ni tashkil etdi.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

	Hajmi, mlrd so'm	o'sish sur'ati %da	umumiy hajmga nisbatan, %da	
			2024-y.	2025-y.
Jami	17 227,2	145,2	100,0	100,0
markazlashgan investitsiyalar:	2 112,3	2,0 m.	8,8	12,3
respublika budjeti	602,9	74,8	6,8	3,5
Moliya vazirligi huzuridagi suv bilan ta'minlash va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	209,6	187,4	1,0	1,2
tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari	673,6	-	-	3,9
shu jumladan, mln AQSh dollarida	53,6	-	x	x
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar	626,2	5,2 m.	1,0	3,7
shu jumladan, mln AQSh dollarida	49,1	5,3 m.	x	x
markazlashmagan investitsiyalar:	15 114,9	139,6	91,2	87,7
korxona mablag'lari	1 756,8	101,0	14,6	10,2
aholi mablag'lari	370,4	105,2	2,9	2,1
to'g'ridan-to'g'ri, boshqa va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar	12 352,1	151,0	69,0	71,7
shu jumladan, mln AQSh dollarida	979,8	158,2	x	x
<i>shundan:</i>				
<i>to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar</i>	8 475,2	136,4	52,4	49,2
shu jumladan, mln AQSh dollarida	673,5	143,4	x	x
tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	635,6	114,3	4,7	3,7

2025-yil yanvar-dekabr oylarida markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 2 112,3 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 2,0 barobar ko'p investitsiyalar o'zlashtirildi. Ularning jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmidagi ulushi esa 12,3 % ga yetdi.

Yillar bo'yicha markazlashgan va markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi, % da



2025-yil yanvar-dekabr oylarida markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 15 114,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 139,6 % ni tashkil etdi. Ularning jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmidagi ulushi esa 87,7 % ga yetdi.

Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari ichida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar ulushi yuqori bo'lib, jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 71,7 foizni yoki 12 352,1 mlrd so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, korxona va aholi mablag'lari hisobidan 2 127,2 mlrd so'm asosiy kapitalga o'zlashtirilib jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 12,3 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalarning
moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi

	Jami investitsiyalar, mlrd so'm	shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo'yicha: (jamiga nisbatan % da)						
		Respublika budjeti	Korxona va tashkilot	Aholi	Xorijiy investitsiya va kreditlar	Suv bilan ta'minlash va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	Tiklanish va taraqiyot jamg'armasi	Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari
Sirdaryo viloyati	17 227,2	3,5	10,2	2,1	75,4	1,2	3,9	3,7
<i>shaharlar</i>								
Guliston	1 698,2	9,4	23,3	6,4	44,9	4,8	8,5	2,7
Shirin	3 304,6	-	2,8	0,1	96,9	-	0,2	-
Yangiyer	3 204,5	1,2	3,1	0,3	91,2	0,6	0,7	2,9
<i>tumanlar</i>								
Boyovut	1 513,2	3,7	10,2	2,0	77,5	1,3	3,5	1,8
Guliston	584,8	7,3	34,8	3,5	40,9	-	10,5	3,0
Mirzaobod	863,5	4,1	9,9	2,0	70,6	1,5	6,4	5,5
Oqoltin	1 068,7	0,6	5,7	0,9	79,3	-	2,9	10,6
Sardoba	903,7	2,8	14,0	2,1	68,2	0,2	2,8	9,9
Sayxunobod	1 699,2	3,3	4,4	1,0	84,2	0,2	5,0	1,9
Sirdaryo	1 523,9	5,4	27,8	6,7	42,5	0,5	8,3	8,8
Xovos	862,9	12,0	4,7	3,8	60,8	7,4	7,4	3,9

II. Sirdaryo viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida ishlab chiqarish sanoati yetakchilik qilmoqda. Amalga oshirilayotgan yirik investitsiya loyihalari natijasida ushbu iqtisodiy faoliyat turida jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 6 569,7 mlrd so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 38,1 % o'zlashtirildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

	Hajmi, mlrd so'm	umumiy hajmga nisbatan, % da	
		2024- y.	2025- y.
Asosiy kapitalga investitsiyalar – jami	17 227,2	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 220,0	8,8	12,9
Axborot va aloqa	21,6	0,4	0,1
ishlab chiqarish sanoati	6 569,7	23,4	38,1
elektr energiyasi, gaz, bug' va kondensiyalangan havo	3 681,3	42,2	21,4
suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish	383,0	1,8	2,2
Qurilish	423,2	3,8	2,4
ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash	412,1	5,7	2,4
tashish va saqlash	556,1	1,5	3,2
boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish	100,7	0,9	0,6
Davlat boshqaruvi va mudofaa	68,3	0,8	0,4
moliya va sug'urta faoliyati	60,7	0,4	0,3
kasbiy, ilmiy va texnik faoliyat	89,2	0,9	0,5
ta'lim	806,4	2,5	4,7
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	297,5	1,4	1,7
san'at, ko'ngil ochish va dam olish	74,3	0,4	0,4
turar-joy qurilishiga investitsiyalar	1 363,7	3,9	7,9
boshqa faoliyat turlari	99,4	1,2	0,8


III. Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

2025-yil yanvar-dekabr oylarida jami asosiy kapitalga 1 028,8 mln dollar (12 978,3 mlrd so'm) xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirilgan bo'lsa, ulardan 673,5 mln dollari (8 475,2 mlrd so'm) yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 65,3 foizi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hissasiga to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiya va kreditlar, mlrd so'm

	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	O'zR kafolati ostida xorijiy kreditlar	Kafolatlanmagan xorijiy investitsiya va kreditlar
Sirdaryo viloyati	8 475,2	626,2	3 876,9
<i>shaharlar</i>			
Guliston	73,9	92,2	597,1
Shirin	3 183,6	-	19,9
Yangiyer	1 987,1	36,6	899,3
<i>tumanlar</i>			
Boyovut	574,3	279,4	320,1
Guliston	64,1	30,5	144,7
Mirzaobod	571,6	-	37,7
Oqoltin	399,9	-	447,8
Sardoba	356,6	0,6	258,4
Sayxunobod	660,4	30,5	739,8
Sirdaryo	333,8	30,5	283,6
Xovos	269,9	125,9	128,5

Sirdaryo viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar, % da



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi \(yillik\)](#)

[Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi \(choraklik\)](#)

IV. Sirdaryo viloyatida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish

2025-yil yanvar-dekabr oylarida jami 136,1 ming kv.m turar-joylar ishga tushirilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 102,8 % ni tashkil etdi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda viloyat bo'yicha jami 584 ta turar-joylar ishga tushirildi, ularning 311 tasi qishloq joylar hissasiga to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish

	Turar-joylar, kv.m	Ulardan: qishloq joylarda kv.m	Ichimlik suv tarmog'i, km
Sirdaryo viloyati	136 116	67 587	41,7
<i>shaharlar</i>			
Guliston	54 656	-	2,1
Shirin	963	-	-
Yangiyer	4 525	-	3,3
<i>tumanlar</i>			
Boyovut	5 618	4 994	3,6
Guliston	4 050	4 050	-
Mirzaobod	2 196	2 196	-
Oqoltin	841	411	-
Sardoba	4 223	3 271	-
Sayxunobod	2 104	2 104	1,9
Sirdaryo	47 808	41 429	2,8
Xovos	9 132	9 132	28,0

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ishga tushirilgan uy-joylarning umumiy maydoni \(yillik\)](#)

[Ishga tushirilgan suv tarmoqlari uzunligi \(jami, yillik\)](#)

[Ishga tushirilgan qaz tarmoqlari uzunligi \(jami, yillik\)](#)

V. Asosiy kapitalga investitsiyalar bo'yicha uslubiy tushuntirishlar

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarga barcha turdagi qurilish ishlariga qilingan xarajatlar; asbob-uskunalarini montaj qilish bo'yicha xarajatlar; mashina, asbob-uskunalar (montaj talab etiladigan va talab etilmaydigan), transport vositalari, jihoz va xo'jalik inventarini sotib olish; boshqa kapital ishlar va xarajatlar kiradi. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar, ilgari boshqa tashkilotlarning asosiy fondlarida hisobga olingan asbob-uskunalar, binolar va inshootlar (yoki ularning ehtiyot qismlari)ni sotib olishga qilingan xarajatlarsiz keltirilgan.

Chet el investitsiyalari – asosan kelgusida foyda olish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi hududidagi korxona va tashkilotlarga kiritilgan chet el kapitali.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bu – korxonaga to'liq egalik qiluvchi yoki korxona aksionerlik kapitalining 10 % dan kam bo'lmagan qismini nazorat qiluvchi, ya'ni korxonani boshqarishda ishtirok etish huquqigi ega bo'lgan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investor yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan kiritilgan investitsiyalar.

Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar yangi va import orqali xarid qilingan asosiy vositalarni o'z ichiga oladi. Bularga: ularning boshlang'ich qiymatini oshirishga olib keladigan yangi qurilish, kengaytirish, obyektlarni rekonstruksiya va modernizatsiya qilish uchun ketgan xarajatlar, mashinalar, asbob-uskunalar, transport vositalari, yer holatini yaxshilash uchun xarajatlar, geologik qidiruv ishlariga, asosiy podani shakllantirishga va ko'p yillik o'simliklarni o'tkazishga ketgan xarajatlar kiradi.

Mazkur ko'rsatkichga shuningdek moliyalashtirishining barcha manbalari hisobidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hamda texnik va hayriya yordam, "MEN" shartnomalari, ta'sischilarning yangi asosiy vosita sifatidagi badallari, shuningdek intellektual mulkchilik obyektlariga va intellektual faoliyat mahsulotlariga investitsiyalar kiritiladi.

Tayyorlash uchun mas'ul:
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
B. Umarqulov
67 236-70-00 (2020)

Manzil:

